TOSHKENT SHAHRI MIRZO ULUG‘BEK TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 31-oktabr | 411-14-200-Q/24 | Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil 5-6-son, 97-modda) 17-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi “2019-yilda aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmasi to‘g‘risida”gi PQ-4227-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-yil 07/19/4227/2782-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-yil 09/17/965/0393-son), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda 3163-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2019-yil 10/19/3163/3221-son) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan

shaxslarni ishga joylashtirish uchun Mirzo Ulug‘bek tumanida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq:

2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha **386** ish o‘rnini tashkil etib, shu jumladan:

nogironlar uchun 9 foiz (32 ta);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 49 foiz (187 ta);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 24 foiz (98 ta);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 6 foiz (23 ta);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 5 foiz (20 ta);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 3 foiz (12 ta);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 3 foiz (11 ta);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 1 foiz (3 ta) miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena meyorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi ta’minlasin:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar– ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan.

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektr va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

5. 2-ilovada qayd etilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2025-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zahiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman bandligiga ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston

Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.M.Islamov):

ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilot, korxona va muassasalarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqqining 2 barobari miqdorida tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan haq to‘lanishini ta’minlasin;

mazkur qarorni besh kun muddatda zahira o‘rin yaratayotgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va tuman hokimining qarori bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

8. Tuman hokimligi Matbuot kotibi (M.Parmonov):

ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Saidaliyev zimmasiga yuklansin.

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi **B.Gaibnazarov**

Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
411-14-200-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari -	A.Saidaliyev

Komissiya a’zolari

Tuman IIOFM boshqarmasi boshlig‘i -	S.Mirzaraimov
Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i -	Sh.Ismailov
Tuman Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i v.b. -	I.Muzaffarov
Tuman ijtimoiy-moslashtirish markazi rahbari -	U.Bakiyev
Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, komissiya kotibi -	S.Saidolimov

Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
411-14-200-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan vamehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risida

TAKLIFLAR

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan tashkilotlar ro‘yxati	Korxona tashkilotlarning manzili	Tashkilotning STIR Kelgusi yilga zaxiragaqo‘yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Kelgusi yilga zaxiragaqo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shundan:								
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironlar soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun	Oilaviy (maishiy) zo’ravonlik natijasida jabrlanganlar

	JAMI:			386	98	187	20	32	23	12	3	11
1	"GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI" davlat unitar korxonasi	Olimlar ko'chasi, 64-uy	200522950	4		4						
2	"YADRO FIZIKA INSTITUTI" davlat muassasasi	Xuroson ko'chasi, 1-uy	200540390	6		5		1				
3	"SANITARIYA, GIGIENA VA KASB KASALLIKLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI" davlat muassasasi	Oltintepa ko'chasi, 325-uy	200540953	8	3	4		1				
4	O`ZYO`LLOYIHA LOYIHA-QIDIRUV INSTITUTI davlat unitar korxonasi	Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	305756527	5		4			1			
5	RESPUBLIKA BOLALAR KUTUBXONASI	Ya.G'ulomov ko'chasi, 47-uy	300008218	4		4						
6	TOSHKENT SHAHAR MIRZO ULUG'BEK TUMAN MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI	Yalang'och mavze, 27a-uy	305145432	4		3		1				
7	O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi	Mustaqillik shox ko'chasi, 68a-uy	200541754	2		2						
8	RESPUBLIKA OLIMPIYA ZAHIRALARI TENNIS	Yalong'och mavze	300875335	2		2						

	MAKTABI											
9	O'ZBEKISTON DAVLAT SATIRA TEATRI	Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 434-uy	200936284	2	1				1			
10	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" Davlat muassasasi	Газалкент кучаси 51-уй	200541492	7						4	1	2
11	SPORT KURASHLARI BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN OLIMPIYA ZAXIRALARI MAKTABI	Mustaqillik shoh ko'chasi, "Dinamo" stadioni	302411887	2		2						
12	INTERNATIONAL HOUSE-TOSHKENT	Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy	201724968	4	1		3					
13	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI BOTANIKA INSTITUTI	Do'rmon Yo'li ko'chasi, 32-uy	305079736	5		5						
14	YANGI O`ZBEKISTON BOG`I OBYEKTLARINI SAQLASH VA EKSPLUATATSIYA QILISH DIREKSIYASI	Mirzo Ulug'bek tumani Yangi O`zbekiston ko`chasi	308910088	8				2		3	1	2
15	"OZONE FITNESS" MAS`ULIYATI	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek	302923455	4		2	2					

	CHEKLANGAN JAMIYATI	tumani Mustaqillik shox ko'chasi, 88a-uy										
16	"YANDEX EATS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani CHUST KO'CHASI, ELOBOD MFY, 1-UY	310150022	4	2		2					
17	PREZIDENT MAKTABI	Do'rmon yo'li ko'chasi, 31-B-uy	306608391	2	2							
18	"DIPLOMAT INTERNATIONAL SCHOOL" nodavlat ta`lim muassasasi	Ravnaq ko'chasi, 1a-uy	305428815	2	2							
19	"THE BRITISH SCHOOL OF TASHKENT" nodavlat ta`lim muassasasi	Sayram ko'chasi, 30a-uy	301535456	2	2							
20	MIRZO ULUG'BEK TUMAN MARKAZIY KO'PTARMOQLI POLIKLINIKASI	TTZ 2-mavze	200540938	6	2	2						2
21	"2-SONLI RESPUBLIKA KLINIK SHIFOXONASI" davlat muassasasi	Ulug'bek shaharchasi, Ibn Sino ko'chasi, 1-uy	200541778	2	1				1			
22	TOSHKENT VILOYAT SOG'LIQNI SAQLASH	Sho'rtepa ko'chasi 203-uy	200541453	4	2	1		1				

	BOSHQARMASINING MAXSUS TIBBIY TA'MINOT BAZASI											
23	1-SON TUMAN FTIZIATRIYA DISPANSERI	A.Yugnakiy mavze, 15a-uy	203802924	2		1	1					
24	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI	M.Ulug'bek ko'chasi, 132a-uy	200541191	4	1	1		1	1			
25	SHAHAR 5-SON BOLALAR KLINIK SHIFOXONASI	Ziyolilar ko'chasi, 38-uy	202141618	2	1	1						
26	SHAHAR 5-SON KLINIK SHIFOHONASI	Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 417-uy	200541248	5		2			1	1		1
27	AKADEMIK Y.X.TO'RAQULOV NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ENDOKRINOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI	M.Ulug'bek ko'chasi, 56-uy	200541224	6	2	2		1			1	
28	NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISH VA PROTEZLASH	Darxontepa ko'chasi, 5a-uy	200555578	8	4	2		1	1			

	MILLIY MARKAZI											
29	"U.K.KURBONOV NOMIDAGI BOLALAR RUHIY-ASAB KASALXONASI"	Olmachi ko'chasi, 1-uy	200540486	6	3	2		1				
30	TOSHKENT SHAHAR "MURUVVAT" NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ERKAKLAR INTERNAT UYI	Qorasu 4-mavze	200541968	8	4	2		1		1		
31	"NOBEL PHARM" M.CH.J	Qorasuvbuyi ko'chasi 5 A uy	205179384	4	2	2						
32	"NIKA PHARM" M.CH.J	SAYRAM 7-TOR KO'CHASI, 48A-UY	206698808	4	2	2						
33	"O'ZBEKGIDROGEOLOGIYA" unitar korxonasi	Olimlar ko'chasi, 64-uy	305414532	2	1	1						
34	"PLIT INDUSTRY BUILDING" M.CH.J	SAYRAM 5-TOR KO`CHASI, 92-XONA	304897004	8	2	2			2	2		
35	"AZALIUM" M.CH.J	Humoyun mavze, 3a-uy	204705466	4		2						2
36	"O'ZOG'IRSANOATLOYIHA" A.J	Mustaqillik shox ko'chasi, 88-uy	200523238	4	4							

37	"KARTOGRAFIYA " davlat unitar korxonasi	Ziyolilar ko'chasi, 6-uy	200523364	4	2	2						
38	ELEKTRQISHLOQ QURILISH A.J	Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 274-uy	200523561	10	2	2	2	2	2			
39	NEFT VA GAZ KONLARI GEOLOGIYASI HAMDA QIDIRUVI INSTITUTI	M.Ulug'bek tumani	200624934	4		4						
40	"TOSHKENT ISSIQLIK MARKAZI" davlat unitar korxonasi	Yalang'och mavze	200524323	8	4	4						
41	"OTEL O'ZBEKISTON" M.CH.J	MAXTUMQ ULI KO`CHASI, 45-UY	200524845	8	2	4	2					
42	"MA'MURIY BINODAN FOYDALANISH DIREKSIYASI" unitar korxonasi	Mustaqillik shox ko'chasi, 68a-uy	202756999	4		2		2				
43	"MAXSUSENERG OGAZ" A.J	Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 32a-uy	200523522	8		8						
44	"KAREFUL" mas`uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani QORASU-6 MAVZESI, 18-UY, 37-XONA	309164819	5				5				

45	"IJTIMOIY SAMARQAND IPAK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Minglola MFY, Qorasu-6 mavzesi, 12-uy, 64-xonadon	311017493	6				6				
46	270-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Qorasu 2-mavze, Shams ko'chasi, 1-uy	301243994	2	1	1						
47	418-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Bo'z 2-mavze, 1-uy	301242616	4	2	2						
48	408-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Humoyun mavze	301242591	2	1	1						
49	390-SONLI KO'P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Yalong'och mavze	301242569	2	1	1						
50	274-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	FERUZA MAVZESI, 33V-UY	301242465	2	1	1						
51	14-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT	TTZ 4-mavze, 46-uy	301242419	2	1	1						

	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI											
52	332-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Sayram ko'chasi, 39a-uy	301242505	2		1			1			
53	145-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mo'minov ko'chasi, 13-uy	200540731	2		1			1			
54	382-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	A.Yugnakiy mavze	301242537	2	1	1						
55	2-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	TTZ 1-mavze	301243954	2		1						1
56	410-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Muxtor Xodja Xoshimov ko'chasi, 22-uy	301242609	2	1	1						
57	456-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Qaynarsoy ko'chasi, 15-uy	301242648	2	1				1			

58	193-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Qorasu 6-mavze	301242434	2	1	1						
59	426-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Buyuk Ipak Yo'li mavze, S.Azimov ko'chasi, 41-uy	203326194	2	1	1						
60	541-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	MUSTAQILLIK SHOH KO'CHASI, 49-uy	301242759	2	1	1						
61	419-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Oloy mavzesi, 31-uy	204234942	2	1	1						
62	29-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Binokor ko'chasi, 68-uy	202101871	2	1	1						
63	471-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Feruza mavzesi	301242655	2	1				1			
64	597-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA	Parkent ko'chasi, 31-uy	301244218	2	1					1		

	TA'LIM TASHKILOTI											
65	312-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	YALONG`OCH MAVZESI	301242480	2	1	1						
66	137-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	TTZ 4-mavze, 35a-uy	301243883	2	1				1			
67	148-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Qorasu 1-mavze	301243923	2	1	1						
68	192-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Raim Soliyev ko'chasi, 4-uy	301244486	2		2						
69	219-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Xuroson 3-tor ko'chasi	301243979	2		2						
70	134-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	QORASU-1 MAVZESI, 5A-UY	301391764	2		2						

71	466-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	FERUZA MAVZESI	301375023	2	1	1						
72	367-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	YALANG'OCH MAVZESI, 100-UY	301242520	2		1			1			
73	209-SONLI UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABI	Qorasu 1-mavze	300435462	4		4						
74	223-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB	FERUZA MAVZE	203318845	4		3		1				
75	50-SONLI DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Istiqlol ko'chasi, 8-uy	203354629	4	1	2		1				
76	71-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Mustaqillik shox ko'chasi, 48-uy	203323753	4	2	2						
77	"210-SONLI O'RTA TA'LIM MAKTABI"	TTZ 1-mavze, 48-uy	203362642	4	1	3						
78	120-SONLI O'RTA TA'LIM MAKTABI	A.Yugnakiy mavzesi	203368024	4		4						
79	279-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Humoyun mavze, 17-uy	203512390	4	1	2		1				
80	221-SONLI UMUMIY TA'LIM MAKTABI	Feruza mavze	203529582	4		4						

81	"105-SONLI MAXSUS MAKTAB INTERNATI"	T.Malik ko'chasi, 110-uy	200540898	2		2						
82	"101-SONLI MAXSUS MAKTAB-INTERNATI"	Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 239-uy	200540336	2		1		1				
83	208-SONLI O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABI	Qorasu 2-mavze	204825372	4		4						
84	49-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Bo'z 2-mavze	204903379	4		4						
85	187-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Yalang'och mavze	300435519	4		4						
86	148-sonli matkab	Parkent ko'chasi, 271-uy	205577278	4		4						
87	207-SONLI O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABI	Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 368-uy	300424286	4	2	1	1					
88	241-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	SALOM KO'CHASI, 1-UY	206783354	4	1	1	1		1			
89	121-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	QORASU-4 MAVZESI	300450073	4	1	1	1					1
90	142-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUM TA'LIM MAKTABI	Osiyo ko'chasi, 19-uy	300444752	4	1	1	1		1			
91	211-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Gulsanam ko'chasi, 1-uy	300444619	2	1	1						

92	286-SONLI UMUMIY TA'LIM MAKTABI	M.ULUG'BEK SHAHARCHASI, XUROSON 1-TOR KO'CHASI, 7-UY	300444769	4	1	2		1				
93	27-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	DO'RMON YO'LI KO'CHASI, 24-UY	300435390	4	1	1	1		1			
94	"308-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI"	Qorasu 1-mavze	300435526	4		2			2			
95	222-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Avayxon ko'chasi, 15-uy	300446038	4	1	1	1		1			
96	275-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	QORASU 6-MAVZESI 275-SONLI MAKTAB	300446045	4	1	3						
97	"248-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI"	TTZ 2-mavze	300444680	4		4						
98	112-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Angren ko'chasi, 54-uy	300449208	4	1	1	1		1			
99	205-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	Feruza ko'chasi, 31-uy	300444903	4	1	1	1	1				
100	2-SONLI BOLALAR O'SMIRLAR SPORT MAKTABI	TTZ 1-mavze, Yubileyniy ko'chasi, 1-uy	303827240	4	1	3						
101	1-SONLI BOLALAR-O'SMIRLAR	Ahmad Yugnakiy mavze,	303827257	4	2	2						

	SPORT MAKTABI	Kaltatoy ko'chasi, 24-uy										
102	"21-SONLI BOLALAR VA O'SMIRLAR SPORT MAKTABI"	Parkent ko'chasi 127-uy	301754549	3	1	2						
103	225-SONLI O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABI	QALANDAR KO'CHASI, 5-UY	300413403	4	2	2						